

**EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHDA ISLOM DINI
TAMAOYILLARI**

Tursunov Abdimo‘min Shaxanovich,

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiya universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abdimomintursunov641@gmail.com

Tel: +998912286385

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Islom dini manbalarida insonlarda ekologik ongni shakllantirishdagi asosiy g‘oya va qarashlar atroflicha tadqiq qilingan. Islomda ong tabiatni Allohning in‘omi va ishonib topshirgan omonati sifatida ta’riflaydi. Qur’on va hadislarda tabiatni sevish, uni himoya qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha ko‘plab yo‘riqnoma va g‘oyalar berilgan. Tadqiqotda yoshlarning ekologik ongini shakllantirishiga ta’sir etuvchi omillar, inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik, yahlit bir tizim ekanligi atroflicha tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar, Qur’oni karim, hadislar, inson va tabiat, ekologik ong, tabiat va ekologiya.*

Kirish. Yurtimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2025-yilga “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nom berilishi bejizga emas. Chunki bu qaror har biri mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal qilish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan bir necha muhim omilga asoslangan. Dunyo bo‘ylab atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan holatlar ko‘paymoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida: “Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni, xususan,

«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz.” [1:90], deb ta’kidlagan edi. Jumladan, O‘zbekiston ham iqlim o‘zgarishi, havo va suv ifloslanishi kabi jiddiy ekologik muammolarga duch kelmoqda. Atrof-muhit masalasini asosiy kun tartibiga olib chiqish davlatimizga ayni masalarni bartaraf qilish imkonini berdi, jamoatchilikda esa tabiatga e’tiborni kuchaytiradi.

Yutrdoshlarimiz ekologik va estetik ongini shakllanishi bo’yicha A.Xukumovning "O‘zbekiston Respublikasi aholisi ekologik ongi darajalarining tahlili muammolari" risolasi mavzuning nisbatan mukammal sotsiologik ilmiy izlanishlari natijasidir. Bu tadqiqotda ekologik barqaror taraqqiyotning aholi ijtimoiy, iqtisodiy, geografik, etnografik, ekologik yashash sharoitlari bilan dialektik bog’lanish va aloqadorligining sotsiologik qonuniyatlarini ochib bergan¹. Ushbu maqolada fuqarolar ongini shakllantirishda islom dini g‘oyalariri vositasida tadqiq qilganmiz. Islom dinining asosiy manbasi hisoblangan Qur’onda tabiat va ekologiyaga oid asosiy g‘oyalar quyidagicha. Qur’onda tabiat va ekologiya insonning yashash muhiti sifatida Alloh tomonidan yaratilgani va bu borada insonning javobgarligi ta’kidlanadi: Yer Allohning omonatidir: “Osmonlar va Yer yaratilib, undan suv tushirildi. Shundan so‘ng har turli go‘zal juftlarni yetishtirdik” (Qof, 7). Bu oyat tabiatning Alloh tomonidan inson uchun go‘zallik va ne‘mat sifatida yaratilganini bildiradi. Inson undan foydalanishda mas’uliyatli bo‘lishi kerak. Tabiatni buzmaslikka chaqiriq: “Qachon ular hokimiyatga ega bo‘lsalar, yer yuzida buzg‘unchilik qilib, ekinlarni va nasllarni halok qilurlar. Alloh buzg‘unchilikni sevmas” (Baqara, 205). Bu oyatda buzg‘unchilik, tabiatga zarar yetkazish va ekologik muvozanatni buzish qattiq qoralanadi.

Hadislarda tabiatni himoya qilish va ekologik ong haqida Rasululloh (s.a.v.) o‘z hayotlarida tabiatni asrash va ekologiyani himoya qilish bo’yicha amaliy tavsiyalarni berib, buni o‘z hayotlari bilan namoyish qilganlar: Daraxt ekishning ahamiyati haqida Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: “Kim bir daraxt ekib, uning mevasidan odamlar, hayvonlar yoki qushlar yesa, bu daraxtni ekan odam uchun sadaqa bo‘ladi” (hadis). Bu hadis tabiatni boyitishning faqat savob emas, balki

¹ Хукумов А. Проблемм анализа уровня экологического сознания населения Республики Узбекистан. Т.: ТЭУ, 1994. С. 30.

ekologiyani saqlashdagi hissamiz ekanini eslatadi. Hayvonlarga nisbatan munosabat: Hayvonlarni hurmat qilish va ularga ozor bermaslik Islomning muhim tamoyillaridan biridir. Rasululloh (s.a.v.) bir mushukka yaxshi munosabatda bo'lgani uchun jannatga kirgan, aksincha, hayvonga zarar yetkazgani uchun jazolangan insonlar haqida xabar berganlar.

Tabiatni muhofaza qilish mas'uliyati bo'yicha islomda tabiat inson uchun xizmat qilish uchun yaratilgani, ammo undan oqilona foydalanish shart ekani ta'kidlanadi. Ayniqsa isrofgarchilik qattiq qoralanadi. Qur'onda shunday deyiladi: "Yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar. Chunki Alloh isrof qiluvchilarni sevmas" (A'rof, 31). Bu oyat suv, oziq-ovqat va tabiiy resurslarni tejamkorlik bilan ishlatish muhimligini o'rgatadi. Shuningdek, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha "Biz hamma narsani juft-juft qilib yaratdik. Shoyad, o'ylab ko'rsangiz" (Zariyot, 49)- deb takidlab o'tilgan. Bu oyat koinotdagi ekologik muvozanatni va tabiatning o'ziga xos tartib-intizomini eslatadi.

Suvdan oqilona foydalanish bo'yicha, u hayotning asosi hisoblanib, Islomda uni tejash bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan: Rasululloh (s.a.v.) tahorat olayotganda ham suvni isrof qilmaslikni tavsiya qilganlar, hatto suv daryodan olinayotgan bo'lsa ham. U zot aytganlar: "Daryoning bo'yida bo'lsang ham, suvni isrof qilma" (Ahmad).

Tabiatga hurmatning ijtimoiy va ruhiy foydalari bo'yicha uni asrash nafaqat ekologik, balki ma'naviy va ruhiy foyda ham keltiradi: Tabiatni kuzatish orqali Allohning qudrati haqida fikr yuritish. Ruhiy osoyishtalik va mushohada uchun tabiatning pokligini ta'minlash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda zamonaviy ekologik muammolar va Islom yondashuvi bo'yicha global muammo bo'lib, islomda ilgari surilgan qadriyatlar ularni hal qilishda asos bo'lishi mumkin. Chiqindilarni boshqarish haqida Qur'on tabiatni buzmaslik va yer yuzida ifloslanishni qoralaydi. Bu chiqindilarni to'g'ri boshqarishning diniy asosiga ega ekanini ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish bo'yicha Islom dini tabiatni keyingi avlodlar uchun saqlash mas'uliyati muhim deb hisoblaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Хукумов А. Проблемм анализа уровня экологического сознания населения Республики Узбекистан. Т.: ТЭУ, 1994. С. 30.
3. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. - С. 172.
4. Sayyid Mubashshir Taroziy Sof tabiat dini / Tarj. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. – T.: Hilol-nashr, 2019.
5. <https://scholar.google.com/citations?user=LljJgSAAAAAJ&hl=en>